



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



INGLIZ ADABIYOTIDA DETEKTIVE JANR: "ULAR O'NTA EDI" ROMANI MISOLIDA

Mehmonova Umidabonu

Guliston davlat pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi

mehmonovaumidabonu@gmail.com

O'qituvchi: Safarmatova Odina

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz adabiyotida detektiv janrning o'rni hamda janrning yuqori bosqichga ko'tarilishida Agata Kristining "Ular o'nta edi" romanining ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda qahramonlar xarakterining o'ziga xosligi, psixologik keskinlik va kutilmagan yakun orqali detektiv janrda yuz bergan badiiy yangiliklar ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *detektiv janr, syujet, roman, adabiyotshunoslar*

THE DETECTIVE GENRE IN ENGLISH LITERATURE: THE NOVEL "AND THEN THERE WERE NONE" AS AN EXAMPLE

Mehmonova Umidabonu

*A student of the Foreign Language and Literature program at Gulistan State
Pedagogical Institute.*

Abstract: *This article analyzes the role of the detective genre in English literature and examines the significance of Agatha Christie's novel And Then There Were None in elevating the genre to a higher stage of development. The artistic innovations in the detective genre are revealed through the characters' distinctive traits, psychological tension, and the unexpected ending of the novel.*

Keywords: *detective genre, plot, novel, literary critics*

ДЕТЕКТИВНЫЙ ЖАНР В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «И НИКОГО НЕ СТАЛО»

Мехмонова Умидабону

*Студент направления «Иностранный язык и литература» Гулистанского
государственного педагогического института.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль детективного жанра в английской литературе, а также значение романа Агаты Кристи «И никого не стало» в процессе выхода жанра на более высокий этап развития. В произведении*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



раскрываются художественные новаторства детективного жанра через своеобразие характеров персонажей, психологическую напряжённость и неожиданный финал.

Ключевые слова: *детективный жанр, сюжет, роман, литературные критики*

KIRISH

Agata Kristining “Ular o‘nta edi” romani uzoq yillardan buyon kitobxonlar tomonidan mashhur ingliz detektiv asari sifatida mutolaa qilib kelinadi. Ushbu asar ingliz adabiyotining muhim namunalardan biri sifatida e’tirof etiladi, chunki u detektiv janrining G‘arbiy Yevropada rivojlanishi va ommalashuvida muhim o‘rin tutadi. Asarning dastlabki sharhlarida tanqidchilar uning murakkab syujeti va o‘quvchini oxirigacha qiziqтира olish qobiliyatini ta’kidlab kelishgan.

Romanning o‘ziga xos jihati shundaki, unda na professional detektiv, na tergovchi obrazi mavjud. Natijada jinoyatni ochadigan an’anaviy shaxs yo‘q bo‘lib, bu holat detektiv janr uchun muhim yangilik hisoblanadi. Adabiyotshunos Julian Symons ushbu xususiyatni “detektiv janrining o‘z qoidalariga qarshi qilingan jasur tajriba” sifatida baholagan.

Asar tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak, roman dastlab 1939-yilda “Ten Little Niggers” nomi bilan nashr etilgan, keyinchalik esa “And Then There Were None” nomi ostida qayta chop etilgan. Asarning dastlabki nomi irqiy jihatdan noo‘rin deb topilgani sababli o‘zgartirilgan. Hozirga qadar roman 50 dan ortiq tillarga tarjima qilingan bo‘lib, bu uning jahon miqyosidagi mashhurligidan dalolat beradi.

Detektiv janr nima ekanligi va ingliz adabiyotidagi o‘rni

Detektiv janr — bu sirli jinoyatning ochilishi tasvirlanadigan adabiy asardir. Ushbu janr XIX asr oxirlarida paydo bo‘lib, qisqa vaqt ichida keng mashhurlikka erishgan. Buning asosiy sababi o‘quvchilarning jinoyat sirini ochishga bo‘lgan qiziqishi hamda jumboq yechimi orqali insonning tafakkuri va kuzatuvchanligini rivojlantirishidir. Aynan shu jihatlar detektiv janrga bo‘lgan talabning oshishiga va uning ommalashishiga sabab bo‘lgan.

Bir qator mashhur adiblar detektiv janrning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Ular orasida Edgar Allan Poe, Agata Kristi va Artur Konan Doyle alohida o‘rin tutadi. Edgar Allan Poeni detektiv janrning asoschisi deb atash mumkin, sababi u mazkur janrda yaratilgan ilk detektiv asar muallifi hisoblanadi. Uning 1841-yilda yozilgan “Morg ko‘chasidagi qotillik” (“The Murders in the Rue Morgue”) hikoyasi detektiv adabiyotning boshlanish nuqtasidir.

Detektiv janr o‘ziga xos bir qator belgilarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Mukammal amalga oshirilgandek tuyuladigan jinoyat
2. Tasodifiy dalillar orqali aybdor sifatida ko‘rsatiladigan, ammo aslida aybsiz bo‘lgan gumonlanuvchi
3. Jinoyatni ochishda ojizlik qiladigan yoki xatolarga yo‘l qo‘yadigan politsiya xodimlari
4. Detektivning yuqori darajadagi kuzatuvchanligi va aqliy salohiyatining boshqalarnikidan ustunligi



5. Asar yakunida detektiv jinoyatchining shaxsini qanday aniqlagani ochib beriladigan kutilmagan va hayratlanarli.

Shuningdek, "Ular o'nta edi" romani ham o'zining boshqalarga o'xshamas syujeti orqali detektiv janrga sezilarli yangilik olib kirgan. Sababi yuqorida aytilgan detektiv janr xususiyatlariga zid tarzda yozilganligi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko'rib turganimizdek, Agatha Kristi detektiv janrida tub burilish yasagan va shu orqali ingliz adabiyotida detektiv janr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan yozuvchi. Ular uning asarining boshqa asarlardan farqladigan bir nechta omillari bor. Ularning eng asosiysi esa jinoyatni oshkor qilish va jinoyatchini aniqlash uchun professional detektivning mavjud emasli, adolat g'oyasi sud yoki jinoyiy javobgarlik orqali emas, balki o'ziga xos syujet va adolat ssenariysi orqali berilganligi. Bundan tashqari, asarda bosh qahramon mavjud emas. Bu holat nafaqat detektiv janrga uchun, balki an'anaviy romanchilikda ham kam kuzatiladigan holat. Asarda barcha qahramonlar teng darajada muhim o'rin egallaydi. Eng qiziq va muhim qismlaridan biri bu qotilliklar bolalar qo'shig'i asosida ketma-ket sodir bo'lishidir. Aynan shu omillar tufayli "Ular o'nta edi" romani uzoq yillardan buyon kitobxonlar e'tiboridan tushmay kelmoqda. Asar yuzasidan bir qator tanqidchilar va yozuvchilar o'z fikr va mulohazalarini bildirgan. Ulardan biri — Julian Symons. Symons Agata Kristini klassik detektiv janr qoidalarini buzgan yozuvchi sifatida baholaydi. U "Ular o'nta edi" romanini detektiv janrga qarshi qilingan eng jasur va muvaffaqiyatli tajriba deb ataydi (Symons, 1972). Boshqa yondashuvni Tzvetan Todorov taqdim etadi. Todorov detektiv janrni nazariy jihatdan tahlil qilib, Agata Kristini klassik detektiv strukturani mukammallashtirgan yozuvchi sifatida ko'rsatadi. "Ular o'nta edi" romanida esa bu strukturani ongli ravishda buzish amalga oshirilgan bo'lib, natijada janr yangi bosqichga ko'tarilganini ta'kidlaydi (Todorov, 1966). Agata Kristining ijodini chuqur o'rgangan va tadqiq qilgan olimlardan biri — Robert Barnard. U "Ular o'nta edi" romanini Kristining eng mukammal asari va detektiv janr tarixidagi eng ta'sirchan romanlardan biri sifatida baholaydi (Barnard, 1980).

Yigirma birinchi asr adabiyotshunoslari ham "Ular o'nta edi" romanini e'tirof qilgan. Ulardan biri — Jon Scaggs, u detektiv janr evolyutsiyasini o'rganib, romanini klassik detektivdan zamonaviy kriminal romaniga o'tish nuqtai nazaridan talqin qiladi. Scaggsning fikricha, asarda syujetdagi mantiqiy jumboqlardan ko'ra psixologik zo'riqish va qahramonlarning ichki ruhiy holati ustun ahamiyatga ega (Scaggs, 2005). Martin Priestman esa "Ular o'nta edi" romanida detektiv janrning qoidalarini sindirib, uni inson ruhiyati, ichki psixologiyasi va axloqiy mas'uliyatini ochib beruvchi adabiy shaklga aylantirganini ta'kidlaydi (Priestman, 2003).

XULOSA

Detektiv janri XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mustaqil adabiy janr sifatida shakllangan. Ushbu janrning asosiy xususiyatlariga sirli jinoyatning sodir bo'lishi, detektiv tomonidan olib borilgan puxta va mantiqiy izlanishlar natijasida jinoyatning fosh etilishi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



hamda yakunda adolatning qaror topishi kiradi. Biroq Agata Kristi detektiv janrda yangicha yondashuv yaratib, an'anaviy qoidalardan chekinishi orqali ko'plab ilmiy munozaralar va ijobiy tanqidlarga sabab bo'ldi. Shu bois uning asarlari uzoq yillardan buyon o'z mashhurligini yo'qotmay kelmoqda va hozirgi kunda ham jahon kitobxonlari orasida sevimli adib sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, "Ular o'nta edi" romani o'ziga xos sirlilik, murakkab jumboqlar, voqealar rivojidadagi keskinlik va kutilmagan yakuni bilan kitobxon qiziqishini kuchaytiradi hamda asarni chuqur ta'sirchan badiiy asarga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baisheva Diana Leonidovna. American Literature Teacher's Book. T:" Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021.
2. Tzvetan Todorov, The Typology of Detective Fiction ,1966.
3. Symons, J. Bloody Murder: From the Detective Story to the Crime Novel. London, 1972.
4. Barnard, R. A Talant to Deceive: An Appreciation of Agatha Christie, 1980.
5. Scaggs, J. Crime Fiction. London ,2005.
6. Priestman, M. The Cambridge Companion to Crime Fiction. Cambridge, 2003.
7. Agata Kristi, "Ular o'nta edi ". "Yangi asr avlodi", 2025.